TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

# HAVODAGI HARAKATGA XIZMAT KO‘RSATISH BO‘YICHA DISPETCHER



“Havodagi harakatga xizmat koʻrsatish boʻyicha dispetcher” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Transport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

© Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti,
Transport sohasida kasbiy malakalarni
rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi, 2026.

**KASBIY STANDART**

**Havodagi harakatga xizmat koʻrsatish boʻyicha dispetcher**

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0062

## I. Umumiy maʼlumotlar

1. Kasbiy standartni qoʻllanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart “Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri”, “Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-inspektori” hamda “Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-yoʻriqchisi” kasblari boʻyicha xodimlarga qoʻyiladigan malaka talablarini belgilash, ularning kasbiy malakasini mustaqil baholash, taʼlim dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, shuningdek fuqaro aviatsiyasi sohasida havodagi harakatni xavfsiz, uzluksiz va samarali boshqarishni taʼminlash, havo kemalari harakatini muvofiqlashtirish, parvozlar xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan qarorlarni qabul qilish, aviatsiya hodisalari va favqulodda vaziyatlarning oldini olish, dispetcherlik xizmatlari faoliyatini nazorat qilish va takomillashtirish, zamonaviy havo harakatini boshqarish tizimlari va texnologiyalaridan samarali foydalanishni taʼminlash, mehnatni muhofaza qilish, parvozlar xavfsizligi va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini nazorat qilish, shuningdek fuqaro aviatsiyasi va havodagi harakatni boshqarish sohasidagi boshqa tegishli faoliyat yoʻnalishlarida keng turda qoʻllaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qoʻllaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur boʻladigan, oʻrganilgan va oʻzlashtirilgan maʼlumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini oʻtkazish usuli;

informal taʼlim – aniq maqsadga yoʻnaltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy taʼlimdan koʻra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi oʻquv faoliyatini oʻz ichiga olgan taʼlim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun moʻljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat koʻrsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – koʻnikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qoʻyiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni oʻz ichiga olgan muayyan kasb toʻgʻrisidagi tizimlashtirilgan maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini oʻz ichiga olgan tizimlashtirilgan roʻyxat;

koʻnikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan oʻzaro taʼsirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy taʼlim – taʼlim xizmatlari taqdim etilishini taʼminlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yoʻnaltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida oʻqitishdagi rasmiy taʼlimga qoʻshimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlar:

Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi;

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 3-iyuldagi “Xalqaro fuqaro aviatsiyasi haqida Konvensiyani ratifikatsiya qilish toʻgʻrisida” 666-XII-sonli qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 7-maydagi “Xalqaro fuqaro aviatsiyasi toʻgʻrisidagi Konvensiyaga doir tuzatishlarni ratifikatsiya qilish toʻgʻrisida” 865-XII-sonli qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 29-dekabrdagi “Xalqaro fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga doir Konvensiyalar va Bayonnomaga qoʻshilish toʻgʻrisida” 1016-XII-sonli qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 7-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasining Havo kodeksini amalga kiritish tartibi toʻgʻrisida” 864-XII-sonli qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-345-son Qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi 275-son “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga oʻtish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori (IFUT-2);

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aviatsiya xodimlariga tegishli lavozimlar roʻyxatini tasdiqlash toʻgʻrisida” 313-sonli qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgustdagi “Transport sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash toʻgʻrisida nizomlarni tasdiqlash haqida” 360-sonli qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-sentabrdagi 504-son qarori hamda mazkur qarorga ilova sifatida tasdiqlangan “Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom;

Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish boʻyicha davlat inspeksiyasi boshligʻining 2004-yil 26-martdagi “Oʻzbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlariga guvohnomalar va malaka berish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Aviatsiya qoidalarini (OʻzR AQ-61) tasdiqlash haqida”gi 49-son buyrugʻi (Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 7-mayda 1349-son bilan roʻyxatga olingan).

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qoʻllaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

PR – parvozlar rahbari;

HHB – havo harakatini boshqarish;

HK – Havo kemalari;

AAX – aeronavigatsion axborot xizmati;

ADP – aerodrom dispetcherlik punkti;

AIJ – avtomatlashtirilgan ish joyi;

BRT – boshqaruv rahbarlar tarkibi;

HHB – havodagi harakatni boshqarish;

HHB AT – havodagi harakatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi;

HHB HB – havodagi harakatni boshqarish hududiy boʻlimi;

HHQM va HHK – havo hujumiga qarshi mudofaa qoʻshinlari va harbiy havo kuchlari organlari bilan hamkorlik qilish;

HHTq – havodagi harakatni tashkil qilish;

HHXk – havodagi harakatga xizmat koʻrsatish;

ICAO – Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti;

PXBT – Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimi;

RM – rayon markazi;

SHFB BM HS - samoviy hududdan foydalanish boshqarmasi Bosh markazi, harbiy sektori;

SHFB BM FS – samoviy hududdan foydalanish boshqarmasi Bosh markazi, fuqaro sektori;

SHFB YT BM FS – samoviy hududdan foydalanish boshqarmasi yagona tizimi Bosh markazining fuqaro sektori;

SHFB YT FS RM – samoviy hududdan foydalanish boshqarmasi yagona tizimi fuqaro sektori rayon markazi;

UTEK – uchuvchilar-tibbiy ekspert komissiyasi;

UUA – uchuvchisiz uchish apparatlari;

YuSH – yuqori samoviy hudud.

## II. Kasbiy standartning pasporti

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | Kasbiy standartning nomi: | Havodagi harakatga xizmat ko‘rsatish bo ’yicha dispetcher | |
| 2. | Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi: | Havodagi harakatga xizmat ko‘rsatishning vazifalariga quyidagilar kiradi:<br>a) nazorat qilinadigan havo kengligida havo kemalari o‘rtasidagi to‘qnashuvning oldini olish;<br>b) manyovr maydonidagi havo kemalari va shu maydondagi to‘siqlar bilan to‘qnashib ketishni oldini olish;<br>d) havodagi harakatning tartiblangan oqimini tezlatish va saqlab turish;<br>e) parvozlarni xavfsiz va samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan konsultatsiyalar va ma’lumotlarni taqdim etish;<br>f) qidiruv-qutqaruv xizmatlarining yordamiga muhtoj bo‘lgan havo kemalari haqida tegishli tashkilotlarni xabardor qilish va bunday tashkilotlarga kerakli yordamni ko‘rsatish. | |
| 3. | IFUT bo‘yicha seksiya, bo‘lim, guruh, sinf va kichik sinf: | H seksiya Tashish va saqlash;<br>52 Omborlarga joylashtirish, saqlash va yordamchi transport faoliyati;<br>52.2 Transportda tashish bo‘yicha yordamchi faoliyat;<br>52.23 Havo trasnporti sohasidagi xizmatlar<br>52.23.0 Havo trasnporti sohasidagi xizmatlar | |
| 4. | Kasbiy standartning qisqacha mazmuni: | Havo kemalarining parvozini xavfsiz, uzluksiz va tartibli boshqarishni ta’minlaydi. Dispetcher uchish va qo’nish jarayonlarini muvofiqlashtiradi, havo kemalari o’rtasida xavfsiz masofani saqlaydi, ob-havo va havo holatini hisobga olib tezkor qarorlar qabul qiladi hamda favqulodda vaziyatlarda parvoz xavfsizligini ta’minlaydi. | |
| 5. | Qamrab olingan kasblar ro‘yxati va malaka darajasi: | **Kasblar kodi va nomi:** | **TMR dagi malaka darajasi:** |
| | | 31540016 Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri | 6 |
| | | 31540017 Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-inspektori | 6 |
| | | 31540018 Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-yo‘riqchisi | 6 |

## III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

| Kasblar | | Mehnat funksiyalari | | Mehnat vazifalari | |
|---|---|---|---|---|---|
| T/r | Kodi va nomi | Kodi | Nomi | Kodi | Nomi |
| 1 | 31540016 Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri | A1.6 | Javobgarlik hududidagi sharoitlarni tahlil qilib HHXKni amalga oshirish | A1.01.6 | Javobgarlik hududidagi havo, metereologik, aeronavigatsion sharoitni bilish va tahlil qilish. Mavjud boʻlgan rejim, cheklashlar, taqiqlar haqida ma'lumotga ega boʻlish,bu sharoitlarni inobatga olgan holda HHXkni amalga oshirish |
| | | A2.6 | Parvozlar xavfsizligini ta'minlagan holda havo kemalari eshelonlashini amalga oshirish | A2.02.6 | Parvozlarning eshelonlash xavfsizligiga rioya qilgan holda havo kemalari orasidagi eshelonlashni amalga oshirish, aerodrom rayonida havo kemalarining kirish va qoʻnish navbatini tartibga solish |
| 2 | 31540017 Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-inspektor | B1.6 | Havodagi harakatni tashkil etish va xizmat koʻrsatish sohasida me'yoriy va uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, HHXK xizmatlari faoliyati, texnologik intizomi va kasbiy tayyorgarligini nazorat qilish, shuningdek tarkibiy boʻlinmalar bilan hamkorlikni tashkil etish | B1.01.6 | HHB AT Markazi/HHB HB boshligʻiga, HHXk xizmati rahbar tarkibiga HHXk xizmati mutaxassislari ishini HHXkni reglamentlovchi hujjatlar talablariga binoan tashkil qilish, rejalashtirish masalalarida yordam berish va nazorat qilish |
| | | | | B1.02.6 | Tarkibiy boʻlinmalarning HHXK xizmatlari texnologik intizomini tekshirish |
| | | | | B1.03.6 | Ma'lumotlarni toʻplash, tahlil qilish va tarkibiy boʻlinma mutaxassislari reytingini tuzish boʻyicha ishlarni amalga oshirish |
| | | B2.6 | Tarkibiy boʻlinmalarning HHXk xizmatlari texnologik intizomini tekshirish | B2.01.6 | Oʻrnatilgan jadvalga muvofiq, tarkibiy boʻlinmalarga HHB dispetcherlarining xizmat faoliyati jarayonida ekipajlar bilan amalga oshirgan radioaloqalarini tekshirish maqsadida radioaloqa yozuvlaridan koʻchirmalar buyurtma qilish |
| | | | | B2.02.6 | Kelib tushgan radioaloqa yozuvlaridan koʻchirmalarni tahlil qilish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | B3.03.6 | Radioaloqa yozuvlaridan koʻchirmalarning tahlil natijalariga koʻra kamchiliklar aniqlangan taqdirda, kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha koʻrsatmalar berish |
| 3 | 31540018 Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-yoʻriqchisi | D1.6 | HHXK xizmati mutaxassislarining tibbiy guvohlik, malaka oshirish, ICAO darajasi va trenajor tayyorgarliklaridan oʻz vaqtida oʻtishini, shuningdek parvozlar xavfsizligi boʻyicha maʼlumotlarni belgilangan muddatda oʻrganish, toʻplash, saqlash va mutaxassislarga yetkazishni nazorat qilish | D1.01.6 | HHB AT Markazi/HHB HB boshligʻiga, HHXk xizmati rahbar tarkibiga HHXk xizmati mutaxassislari ishini HHXkni reglamentlovchi hujjatlar talablariga binoan tashkil qilish, rejalashtirish masalalarida yordam berish va nazorat qilish |
| | | | | D1.02.6 | HHTq boʻyicha hujjatlar, instruktiv va soʻrov materiallarini ishlab chiqishda ishtirok etish |
| | | D2.6 | HHXK xizmati faoliyatini reglamentlovchi hujjatlar asosida tashkil etish va rejalashtirishda rahbariyatga yordam berish, shuningdek auditlar va aviatsion hodisalar natijalariga koʻra aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish boʻyicha tadbirlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etish | D2.01.6 | Ichki va tashqi auditlar, aviatsion hodisalarni tekshirish natija xulosalariga koʻra parvozlar xavfsizligi masalalarida aniqlangan nomuvofiqlilarni bartaraf etishda muvofiqlashtiruvchi tadbirlar ishlab chiqishda ishtirok etish |

## IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

| | |
|---|---|
| Kasbning nomi: | Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri |
| Mashgʻulot nomining kodi: | 31540 |
| TMR boʻyicha malaka darajasi: | 6 |
| Malakani baholashga qoʻyiladigan talablar: | Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qoʻyilgan talablar: | - |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qoʻyilgan talablar: | Maxsus ruhsatlar:<br>HHXkni amalga oshiruvchi mutaxassislarga quyidagi umumiy talablar qoʻyiladi:<br>- kunduzgi taʼlim boʻyicha kasb-hunar taʼlimi toʻgʻrisidagi tegishli hujjatning mavjudligi kasb boʻyicha oʻqitish yoki HHB mutaxassisligi boʻyicha qayta tayyorlash shakli;<br>- 21 yoshdan kichik boʻlmagan;<br>- davlat va rus tillarini taʼminlaydigan darajada bilish<br>oʻz funksional vazifalarini bajarish;<br>- kasbiy ingliz tilini toʻrtinchi darajadan past boʻlmagan darajada bilish;<br>ICAOning til bilish shkalasi boʻyicha (sertifikat);<br>- TUEKning HHB dispetcheri boʻlib ishlashga yaroqliligi toʻgʻrisidagi tibbiy xulosasi;<br>HHB dispetcheri guvohnomasi (ushbu guvohnoma olish uchun nomzodlardan tashqari) Guvohnomalar va dastlabki ruxsatnoma (malaka belgisi) HHB dispetcheri).<br>Ishga munosabat va xulq-atvor:<br>- Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, OʻzR transport Vazirligi, OʻzR “Oʻzaviatsiya” Agentligi, “Oʻzaeronavigatsiya” Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlarini bilish va bajarish;<br>- Mehnat, texnologik intizom, ichki mehnat tartib qoidalariga, odob-axloq qoidalariga, mehnat muhofazasi qoidalariga, yongʻin xavfsizligi qoidalariga, ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalariga rioya qilish;<br>- Navbatchilikni qabul qilishdan avval oʻz vaqtida tibbiy koʻrikdan oʻtish,<br>tibbiy shahodatlikdan (UTEK) oʻtish, malaka oshirish kurslari, ICAO shkalasi boʻyicha ingliz tili bilimi darajasini tasdiqlash, trenajor tayyorgarlik muddatlariga amal qilish;<br>- oʻz tajribasini hamkasblari bilan boʻlishish;<br>- jamoa bilan inoq ishlash;<br>- oʻz vazifalariga bogʻliq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, oʻzlashtirish va joriy qilish. |
| Taʼlim darajasiga qoʻyilgan talablar: | Bakalavriat |

<table>
<tr><td colspan="2">Norasmiy va informal ta’lim bilan bog‘liqligi:</td><td colspan="2">-</td></tr>
<tr><td colspan="2">Kasbiy standartlar reyestrida mavjudligi:</td><td colspan="2">-</td></tr>
<tr><td colspan="2">Kasbning boshqa mumkin bo‘lgan nomlari:</td><td colspan="2">-</td></tr>
<tr><td colspan="2" rowspan="3">Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:</td><td>TMR bo‘yicha malaka darajasi:</td><td>Kasbning nomi:</td></tr>
<tr><td></td><td></td></tr>
<tr><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td colspan="4">Mehnat funksiyalarining tavsifi</td></tr>
<tr><td>Kodi va nomi</td><td colspan="3">Mehnat vazifalari</td></tr>
<tr><td rowspan="14">A1.6-Javobgarlik hududidagi sharoitlarni tahlil qilib HHXKni amalga oshirish</td><td rowspan="14">A1.01.6-Javobgarlik hududidagi havo, metereologik, aeronavigatsion sharoitni bilish va tahlil qilish. Mavjud bo‘lgan rejim, cheklashlar, taqiqlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish,bu sharoitlarni inobatga olgan holda HHXkni amalga oshirish</td><td colspan="2">O‘qitish natijalari</td></tr>
<tr><td colspan="2">Mehnat harakatlari:</td></tr>
<tr><td colspan="2">1. Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri smenadan oldingi instruktajda, hamda smena davomida kelib tushayotgan operativ malumotlar yordamida o‘ziga tegishli bo‘lgan javobgarlik hududidagi havodagi vaziyatni hamda aeronavigatsion sharoitni bilish va tahlil qilish</td></tr>
<tr><td colspan="2">2. SHFB BM HS tomonidan havo hududida kiritiladigan rejim, cheklashlar va ta’qiqlar haqida ma’lumotlarni to‘plash, HK ekipajlariga o‘z vaqtida yetkazish va ularni inobatga olgan holda havodagi harakatni boshqarish</td></tr>
<tr><td colspan="2">3. Ish joyida HHB avtomatlashtirilgan tizimida (AIJ) (tizimlar mavjud bo‘lsa) tegishli avtorizatsiyadan o‘tgan holda navbatchilikni qabul qilish/topshirish</td></tr>
<tr><td colspan="2">4. Navbatchilikni topshirgani/qabul qilgani haqida Parvozlar rahbari (HHB katta dispetcheriga) axborot berish</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ko‘nikmalar:</td></tr>
<tr><td colspan="2">SHFB BM HS, kuzatish meteorologiya stansiya, hamda qo‘shni dispetcherlik punktlari bilan operativ hamkorlikda ishlash</td></tr>
<tr><td colspan="2">Bilimlar:</td></tr>
<tr><td colspan="2">O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, O‘zR transport Vazirligi, O‘zR «O‘zaviatsiya» Agentligi, “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari</td></tr>
<tr><td colspan="2">O‘rnatilgan tartibga binoan ishchi hujjatlarni yuritishni amalga oshirish va Parvozlar rahbari (katta dispetcher)ga o‘z vaqtida zaruriy ma’lumotlarni taqdim etish asoslari</td></tr>
<tr><td colspan="2">Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va yong‘in xavfsizligi me’yor va qoidalari hamda O‘zR mehnat qonunchiligi asoslari</td></tr>
<tr><td colspan="2">“O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK parvozlar xavfsizligi, sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy prinsiplari</td></tr>
</table>

| | | |
|---|---|---|
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Oʻzbekiston Respublikasi havo boʻshligʻidan foydalanish qoidasi va Oʻzbekiston Respublikasi aviatsiya qoidalarida (AQ-91) koʻrsatilgan minimal eshelonlash qoidalariga muvofiq HK orasidagi havfsiz masofalarni HKning tezligi, balandligi va yoʻnalishlarini oʻzgartirgan holda havfsiz intervallarni taʼminlash |
| | | 2. HKlarining tezligi, balandligi va yoʻnalishlarini oʻzgartirgan holda HKlarining Oʻzbekiston Respublikasi xududida joylashgan aerodromlariga uchib kelayotgan va ulardan uchib ketayotgan HKlarininig uzluksiz qatnovini taʼminlash |
| | A1.02.6- Parvozlarning eshelonlash xavfsizligiga rioya qilgan holda havo kemalari orasidagi eshelonlashni amalga oshirish, aerodrom rayonida havo kemalarining kirish va qoʻnish navbatini tartibga solish. | **Koʻnikmalar:** |
| | | Parvozlarning eshelonlash xavfsizligiga rioya qilgan holda havo kemalari orasidagi eshelonlashni amalga oshirish, aerodrom rayonida havo kemalarining kirish va qoʻnish navbatini tartibga solish |
| | | Aerodromlarda joylashgan navigatsiya, lokatsiya hamda aloqa uskunalarida mustaqil ishlash va uskunalar avariya xolatlarida choralar koʻrish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, OʻzR transport Vazirligi, OʻzR «Oʻzaviatsiya» Agentligi, “Oʻzaeronavigatsiya” Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari |
| | | Oʻrnatilgan tartibga binoan ishchi hujjatlarni yuritishni amalga oshirish va Parvozlar rahbari (katta dispetcher)ga oʻz vaqtida zaruriy maʼlumotlarni taqdim etish tamoyillari |
| | | Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va yongʻin xavfsizligi meʼyor va qoidalari |
| | | OʻzR mehnat qonunchiligi asoslari |
| | | “Oʻzaeronavigatsiya” Markazi DUK parvozlar xavfsizligi, sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy prinsiplari |
| | **Masʼuliyat va mustaqillik:** | 1. HHB dispetcheri Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida koʻrsatilgan tartib asosida oʻz lavozim majburiyatlarini kerakli darajada bajarmaganligi uchun javobgardir. |
| **Texnik va/yoki texnologik talab** | | 1. Havodagi harakatni boshqarish (HHB) jarayonida foydalaniladigan avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ), radiolokatsion kuzatuv tizimlari, navigatsiya va aloqa tizimlarini mukammal bilish va ulardan samarali foydalanish;<br>2. Aeronavigatsion, meteorologik va operativ maʼlumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va real vaqt rejimida qoʻllash;<br>3. Havo kemalari harakatini boshqarishda zamonaviy dasturiy taʼminot va texnik vositalar orqali xavfsiz eshelonlashni taʼminlash; |

| | |
|---|---|
| | 4. Aloqa vositalari (radioaloqa, ma’lumot uzatish tizimlari) orqali ekipajlar va qo‘shni dispetcherlik punktlari bilan uzluksiz va aniq axborot almashinuvini ta’minlash;<br>5. Texnik vositalarning ishlash holatini kuzatish va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli choralarni ko‘rish;<br>6. Parvozlar xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan texnologik jarayonlar, reglamentlar va yo‘riqnomalarga qat’iy rioya qilish. |

| | |
|---|---|
| Kasbning nomi: | Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-inspektor |
| Mashg'ulot nomining kodi: | 31540 |
| TMR bo'yicha malaka darajasi: | *6* |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar: | Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar: | - |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar: | Maxsus ruhsatlar:<br>Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-inspektor lavozimga oliy aviatsion ma'lumotli, tashkilotchilik qobiliyatiga ega, amaliy tajriba va HHXK xizmatida mutaxassisligi bo'yicha besh yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega, ICAO til bilimlari shkalasining to'rtinchidan kam bo'lmaganingliz tilini kasbiy talablariga muvofiqligi hamda O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsion xodimlar tibbiy guvohlik to'g'risida<br>Ishga munosabat va xulq-atvor:<br>- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, O'zR transport Vazirligi, O'zR "O'zaviatsiya" Agentligi, "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlarini bilish va bajarish;<br>- Mehnat, texnologik intizom, ichki mehnat tartib qoidalariga, odob-axloq qoidalariga, mehnat muhofazasi qoidalariga, yong'in xavfsizligi qoidalariga, ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalariga rioya qilish;<br>- Navbatchilikni qabul qilishdan avval o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tish, tibbiy shahodatlikdan (UTEK) o'tish, malaka oshirish kurslari, ICAO shkalasi bo'yicha ingliz tili bilimi darajasini tasdiqlash, trenajor tayyorgarlik muddatlariga amal qilish;<br>- o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish;<br>- jamoa bilan inoq ishlash;<br>- o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish. |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar: | Bakalavriat |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi: | - |
| Kasbiy standartlar reyestrida mavjudligi: | - |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari: | - |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi: | **TMR bo'yicha malaka darajasi:** / **Kasbning nomi:** |

| Mehnat funksiyalarining tasnifi | | |
|---|---|---|
| **Kodi va nomi** | **Mehnat vazifalari** | |
| B1.6- Havodagi harakatni tashkil etish va xizmat koʻrsatish sohasida me'yoriy va uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, HHXK xizmatlari faoliyati, texnologik intizomi va kasbiy tayyorgarligini nazorat qilish, shuningdek tarkibiy boʻlinmalar bilan hamkorlikni tashkil etish | B1.01.6 - HHB AT Markazi/HHB HB boshligʻiga, HHXk xizmati rahbar tarkibiga HHXk xizmati mutaxassislari ishini HHXkni reglamentlovchi hujjatlar talablariga binoan tashkil qilish, rejalashtirish masalalarida yordam berish va nazorat qilish | **Oʻqitish natijalari** |
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, auditlar hamda boshqa korxonalardan hujjatlarga kelib tushayotgan taklif va oʻzgartirishlarni inobatga olgan holda, HHB AT Markazi va HHB boʻlinmalarida amaldagi hujjatlar, qoidalar hamda ish texnologiyalariga tegishli oʻzgartirishlar kiritilishiga koʻmaklashish |
| | | 2. Audit tekshiruvi doirasida HHB AT Markazi va HHB boʻlinmalariga tashrif buyurilganda, ichki hamda normativ-huquqiy hujjatlarga oʻz vaqtida kelib tushayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalarning kiritilishini nazoratga olish |
| | | 3. Havodagi harakatni boshqarish mutaxassislarining amaliy va nazariy billim darajasini tekshirish |
| | | **Koʻnikmalar:** |
| | | HHTq da qoʻllaniladigan me'yoriq huquqiy hujjatlarni bilish va ularga tegishli oʻzgartirishlarni kiritish |
| | | Parvozlar xavfsizligi masalalarida aniqlangan kamchiliklarni oʻz vaqtida aniqlashda faol ishtirok etish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, OʻzR transport Vazirligi, OʻzR «Oʻzaviatsiya» Agentligi, "Oʻzaeronavigatsiya" Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari |
| | | Oʻrnatilgan tartibga binoan ishchi hujjatlarni yuritishni amalga oshirish va Parvozlar rahbari (katta dispetcher)ga oʻz vaqtida zaruriy ma'lumotlarni taqdim etish asoslari |
| | | Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va yongʻin xavfsizligi me'yor va qoidalari; OʻzR mehnat qonunchiligi asoslari |
| | | "Oʻzaeronavigatsiya" Markazi DUK parvozlar xavfsizligi, sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy prinsiplari |
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. HHB boshqarish mutaxassislaring ish jarayonida yoʻl qoʻyilayotgan xato va kamchiliklarini ish jarayonidan qilingan koʻchirmalari yordamida tekshirish, aniqlash va kelgusida bartaraf qilish |
| | | 2. Kerak boʻlganda navbatdan tashqari audio koʻchirmalarni tayyorlash va HHB mutaxassislari |

| | | |
|---|---|---|
| | B1.02.6 - Tarkibiy boʻlinmalarning HHXK xizmatlari texnologik intizomini tekshirish | ishini tahlil qilgan holda rahbariyatga hisobot tayyorlash |
| | | **Koʻnikmalar:** |
| | | HHB mutaxassislari ish texnologiyalarini, Oʻzbekiston Respublikasida joylashgan aerodromlarning parvozlarni amalga oshirish boʻyicha yoʻriqnomalarining asosiy maʼlumotlari bilan ishlash |
| | | Tahlillar davomida aniqlangan kamchiliklar va takliflarni tarkibiy bo ʼlinmalarga joʻnatish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, OʻzR transport Vazirligi, OʻzR «Oʻzaviatsiya» Agentligi, “Oʻzaeronavigatsiya” Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari |
| | | Oʻrnatilgan tartibga binoan ishchi hujjatlarni yuritishni amalga oshirish va Parvozlar rahbari (katta dispetcher)ga oʻz vaqtida zaruriy maʼlumotlarni taqdim etish tamoyillari |
| | | Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va yongʻin xavfsizligi meʼyor va qoidalari; OʻzR mehnat qonunchiligi asoslari |
| | | “Oʻzaeronavigatsiya” Markazi DUK parvozlar xavfsizligi, sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy prinsiplari |
| | B1.03.6 - Maʼlumotlarni toʻplash, tahlil qilish va tarkibiy boʻlinma mutaxassislari reytingini tuzish boʻyicha ishlarni amalga oshirish | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Har chorakda tarkibiy boʻlinmalar tomonidan taqdim etilgan oʻz mutaxassislari haqidagi maʼlumotlar asosida HHB mutaxassislari hamda hududiy boʻlinmalarning reytingini shakllantirish |
| | | 2. Tahlillar asosida shakllantirilgan reytingni “Oʻzaeronavigatsiya” Markazi DUK rahbariyatiga belgilangan muddatlarda taqdim etish |
| | | 3. Maʼlumotlarni tahlil qilish maqsadida barcha tarkibiy boʻlinmalar bilan bevosita muloqotda boʻlish |
| | | **Koʻnikmalar:** |
| | | Maʼlumotlarni toʻplash jarayonida betaraflik boʻlish va sinchkovlik qobiliyatlariga ega boʻlish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, OʻzR transport Vazirligi, OʻzR «Oʻzaviatsiya» Agentligi, “Oʻzaeronavigatsiya” Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari |
| | | Oʻrnatilgan tartibga binoan ishchi hujjatlarni yuritishni amalga oshirish va Parvozlar rahbari (katta dispetcher)ga oʻz vaqtida zaruriy maʼlumotlarni taqdim etish prinsiplari |

| | | |
|---|---|---|
| | | Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi me'yor va qoidalari; O'zR mehnat qonunchiligi asoslari |
| | | "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK parvozlar xavfsizligi, sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy prinsiplari |
| | **Mas'uliyat va mustaqillik:** | 1. Havodagi harakatni boshqarish dispetcher-inspektori O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan tartib asosida o'z lavozim majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlik |
| B2.6 - Tarkibiy bo'linmalarning HHXk xizmatlari texnologik intizomini tekshirish | B2.01.6 - O'rnatilgan jadvalga muvofiq, tarkibiy bo'linmalarga HHB dispetcherlarining xizmat faoliyati jarayonida ekipajlar bilan amalga oshirgan radioaloqalarini tekshirish maqsadida radioaloqa yozuvlaridan ko'chirmalar buyurtma qilish | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Yilning har choragida hududiy bo'linmalarning texnologik intizomini nazorat qilish maqsadida ekipajlar bilan amalga oshirilgan radioaloqalarni tekshirish jadvalini tuzish |
| | | 2. Texnologik intizomni tekshirish jadvaliga muvofiq, ekipajlar bilan amalga oshirilgan radioaloqa yozuvlarini tahlil qilish uchun hududiy bo'linmalardan qabul qilib olish |
| | | **Ko'nikmalar:** |
| | | Tarkibiy bo'linmalar bilan bevosita aloqa qilish |
| | | Parvozlar xavfsizligini boshqarish bo'yicha qo'llanmaning texnologik xaritalaridan foydalanish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, O'zR transport Vazirligi, O'zR «O'zaviatsiya» Agentligi, "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari |
| | | O'rnatilgan tartibga binoan ishchi hujjatlarni yuritishni amalga oshirish va Parvozlar rahbari (katta dispetcher)ga o'z vaqtida zaruriy ma'lumotlarni taqdim etish asoslari |
| | | Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi me'yor va qoidalari; O'zR mehnat qonunchiligi asoslari |
| | | "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK parvozlar xavfsizligi, sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy prinsiplari |
| | B2.02.6 Kelib tushgan radioaloqa yozuvlaridan ko'chirmalarni tahlil qilish | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Kelib tushgan radioaloqa yozuvlarini O'zbekistaon Respublikasi aviatsiya qoidalariga muvofiqligini tekshirish |
| | | 2. Tahlillarni bevosita hududiy bo'linmalari yo'riqchilar (rahbarlar) tarkibi bilan muhokama qilish |
| | | **Ko'nikmalar:** |

| | | |
|---|---|---|
| | | Havo harakatini tashkil etish sohasida qoʻllaniladigan normativ-huquqiy hujjatlar, aviatsiya qoidalari va ichki yoʻriqnomalarni amaliyotda qoʻllash |
| | | Radioaloqa yozuvlarini belgilangan talablar asosida tahlil qilish, aniqlangan holatlar yuzasidan xulosa tayyorlash va tegishli takliflar ishlab chiqish |
| | | Hududiy boʻlinmalarning dispetcherlik punktlari faoliyati, ish jarayoni hamda mahalliy xususiyatlarini inobatga olgan holda baholash ishlarini olib borish |
| | | Tahlil natijalarini hududiy boʻlinmalar rahbar va yoʻriqchilar tarkibi bilan kasbiy muhokama qilish hamda amaliy tavsiyalar berish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, OʻzR transport Vazirligi, OʻzR «Oʻzaviatsiya» Agentligi, “Oʻzaeronavigatsiya” Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari |
| | | Oʻrnatilgan tartibga binoan ishchi hujjatlarni yuritishni amalga oshirish va Parvozlar rahbari (katta dispetcher)ga oʻz vaqtida zaruriy maʼlumotlarni taqdim etish asoslari |
| | | Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va yongʻin xavfsizligi meʼyor va qoidalari; OʻzR mehnat qonunchiligi asoslari |
| | | “Oʻzaeronavigatsiya” Markazi DUK parvozlar xavfsizligi, sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy prinsiplari |
| | B2.03.6 - Radioaloqa yozuvlaridan koʻchirmalarning tahlil natijalariga koʻra kamchiliklar aniqlangan taqdirda, kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha koʻrsatmalar berish | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Radioaloqa yozuvlaridan koʻchirmalarning tahlilini qilish maqsadida texnologik kartalardan foydalanish |
| | | 2. Radioaloqa yozuvlaridan koʻchirmalarning tahlili natijalari bilan hududiy boʻlinmalar rahbarlari va PXBT va SMT boshqarmasi boshligʻini tanishtirish |
| | | 3. Tahlil natijalariga koʻra tahlillarda kamchiliklar aniqlangan taqdirda kamchiliklarni bartaraf etish maqsaduda HHB dispetcherlariga individual topshiriqlar berish va kelgusida ushbu kamchiliklarga yoʻl qoʻymaslik choralarini koʻrish |
| | | **Koʻnikmalar:** |
| | | Oʻzbekiston Respublikasi aviatsiya qoidalarining radioaloqa olib borish borasidagi talablarga rioya qilish |
| | | Belgilagan tartibga koʻra texnoligik kartalarni rasmiylashtirish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, OʻzR transport Vazirligi, OʻzR |

| | | |
|---|---|---|
| | | «O‘zaviatsiya» Agentligi, “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari |
| | | O‘rnatilgan tartibga binoan ishchi hujjatlarni yuritishni amalga oshirish va Parvozlar rahbari (katta dispetcher)ga o‘z vaqtida zaruriy ma’lumotlarni taqdim etish asoslari |
| | | Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va yong‘in xavfsizligi me’yor va qoidalari; O‘zR mehnat qonunchiligi asoslari |
| | | “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK parvozlar xavfsizligi, sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy prinsiplari |
| | **Mas’uliyat va mustaqillik:** | Havodagi harakatni boshqarish dispetcher-inspektori O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘rsatilgan tartib asosida o‘z lavozim majburiyatlarini kerakli darajada bajarmaganligi uchun javobgardir. |
| **Texnik va/yoki texnologik talab** | | 1.Havodagi harakatni boshqarish tizimlari, avtomatlashtirilgan dispetcherlik ish joylari (AIJ), radioaloqa yozuv tizimlari va monitoring vositalarini mukammal bilish va ulardan foydalanish;<br>2.HHXK faoliyatini tartibga soluvchi texnologik jarayonlar, reglamentlar va normativ hujjatlarni ishlab chiqish, takomillashtirish va amalda qo‘llash;<br>3.Radioaloqa yozuvlarini qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;<br>4.Ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va reyting tizimlarini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;<br>5.Texnik vositalar va tizimlarda aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha texnologik choralarni ishlab chiqish. |

<table>
<tr><td>Kasbning nomi:</td><td colspan="2">Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-yo‘riqchisi</td></tr>
<tr><td>Mashg‘ulot nomining kodi:</td><td colspan="2">31540</td></tr>
<tr><td>TMR bo‘yicha malaka darajasi:</td><td colspan="2">6</td></tr>
<tr><td>Malakani baholashga qo‘yiladigan talablar:</td><td colspan="2">Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi</td></tr>
<tr><td>Amaliy tajriba (ish staji)ga qo‘yilgan talablar:</td><td colspan="2">-</td></tr>
<tr><td>Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo‘yilgan talablar:</td><td colspan="2">Maxsus ruhsatlar:<br>HHB dispetcheri- instruktori oliy aviatsion ma’lumotga, amaliy ish tajribasiga va HHXk xizmatida mutaxassisligi bo‘yicha 5 yildan kam bo‘lmagan ish stajiga ega, taaluqli malaka talablariga va alohida qaydlarga ega amaldagi guvohnomasi bo‘lgan professional aviatsion ingliz tilini ICAO tillar bilimi shkalasining to‘rtinchidan kam bo‘lmagan darajasi talablariga javob beradigan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsion xodimlarining 21 yoshga to‘lgan bo‘lishi; erkak (ayol);<br>Ishga kirishda dastlabki maxsus (Tibbiyot uchuvchilar ekspert komissiyasi) tibbiy ko‘rikdan o‘tgan bo‘lishi;<br>Mustaqil ishlash uchun ruxsatga ega bo‘lishi;<br>Ishga munosabat va xulq-atvor:<br>- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, O‘zR transport Vazirligi, O‘zR “O‘zaviatsiya” Agentligi, “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlarini bilish va bajarish;<br>- Mehnat, texnologik intizom, ichki mehnat tartib qoidalariga, odob-axloq qoidalariga, mehnat muhofazasi qoidalariga, yong‘in xavfsizligi qoidalariga, ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalariga rioya qilish;<br>- o‘z tajribasini hamkasblari bilan bo‘lishish;<br>- jamoa bilan inoq ishlash;<br>- o‘z vazifalariga bog‘liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o‘zlashtirish va joriy qilish.</td></tr>
<tr><td>Ta’lim darajasiga qo‘yilgan talablar:</td><td colspan="2">Bakalavriat</td></tr>
<tr><td>Norasmiy va informal ta’lim bilan bog‘liqligi:</td><td colspan="2">-</td></tr>
<tr><td>Kasbiy standartlar reyestrida mavjudligi:</td><td colspan="2">-</td></tr>
<tr><td>Kasbning boshqa mumkin bo‘lgan nomlari:</td><td colspan="2">-</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:</td><td>TMR bo‘yicha malaka darajasi:</td><td>Kasbning nomi:</td></tr>
<tr><td></td><td></td></tr>
<tr><td colspan="2"></td></tr>
</table>

| Mehnat funksiyalarining tasnifi | | |
|---|---|---|
| **Kodi va nomi** | **Mehnat vazifalari** | |
| | | **O‘qitish natijalari** |
| D1.6 – HHXK xizmati mutaxassislarining tibbiy guvohlik, malaka oshirish, ICAO darajasi va trenajor tayyorgarliklaridan o’z vaqtida o’tishini, shuningdek parvozlar xavfsizligi bo’yicha ma’lumotlarni belgilangan muddatda o’rganish, to’plash, saqlash va mutaxassislarga yetkazishni nazorat qilish | D1.01.6 - HHB AT Markazi/HHB HB boshlig‘iga, HHXk xizmati rahbar tarkibiga HHXk xizmati mutaxassislari ishini HHXkni reglamentlovchi hujjatlar talablariga binoan tashkil qilish, rejalashtirish masalalarida yordam berish va nazorat qilish | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. HHXk xizmati mutaxassislarining har oylik ish jadvallarini ishlab chiqarishga zarar ko‘rsatmagan holda, hamda HHB dispetcherlari va BRTning toliqish normalarini hisobga olgan holda tuzish |
| | | 2. HHB dispetcherlarining malaka oshirish kurslariga o‘z vaqtida yuborilishini, UTEKdan belgilangan muddatlarda o‘tishlarini nazorat qilsih |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | HHXk xizmati mutaxassislari hamda HHB dispetcherlarining ish jadvallarini ishlab chiqarish uzluksizligini, mehnat va dam olish rejimini, shuningdek toliqish normalarini inobatga olgan holda tuzish |
| | | HHB dispetcherlarining malaka oshirish kurslari va UTEKdan o‘tish muddatlarini rejalashtirish, nazorat qilish hamda tegishli hujjatlarni yuritish |
| | | HHTq bo‘yicha hujjatlar, instruktiv va so‘rov materiallarini ishlab chiqish, rasmiylashtirish va amaliyotga tatbiq etish |
| | | Xizmat faoliyatida kompyuter texnikasi, maxsus dasturlar va boshqa zarur uskunalardan samarali foydalanish |
| | | Jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, O‘zR transport Vazirligi, O‘zR «O‘zaviatsiya» Agentligi, “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari |
| | | O‘rnatilgan tartibga binoan ishchi hujjatlarni yuritishni amalga oshirish va Parvozlar rahbari (katta dispetcher)ga o‘z vaqtida zaruriy ma’lumotlarni taqdim etish asoslari |
| | | Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va yong‘in xavfsizligi me’yor va qoidalari; O‘zR mehnat qonunchiligi asoslari |
| | | “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK parvozlar xavfsizligi, sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy prinsiplari |
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. “O‘zaviatsiya” agentligi, “O‘zaeronavigatsiya” Markazi DUK rahbarlik tarkibidan kelib tushayotgan ko‘rsatma, talab va takliflarni |

| | | |
|---|---|---|
| | D1.02.6 - HHTq bo'yicha hujjatlar, instruktiv va so'rov materiallarini ishlab chiqishda ishtirok etish | inobatga olgan xolda HHB mutaxassislariga ish jarayonida ishlatiladigan HHTq bo'yicha hujjatlar, instruktiv va so'rov materiallarini ishlab chiqish |
| | | 2. HHXk xizmati tahlillari, metodik yig'ilishlarini o'tkazish uchun materiallar tayyorlash |
| | | 3. Belgilangan muddatda HHXk xizmatiga kelib tushayotgan parvozlar xavfsizligi haqidagi ma'lumotlarni o'rganish, ma'lumotlarni to'plash va saqlash va HHXk xizmati mutaxassislariga yetkazish |
| | | **Ko'nikmalar:** |
| | | HHTq bo'yicha hujjatlar, instruktiv va so'rov materiallarini rahbariyat ko'rsatmalari, amaldagi normativ talablar hamda amaliy ehtiyojlardan kelib chiqib ishlab chiqish va rasmiylashtirish |
| | | HHXk xizmati tahlillari va metodik yig'ilishlarini tashkil etish uchun zarur axborot, tahliliy va uslubiy materiallarni tayyorlash |
| | | Parvozlar xavfsizligiga oid kelib tushayotgan ma'lumotlarni belgilangan tartibda o'rganish, tahlil qilish, tizimlashtirish, saqlash va mutaxassislarga o'z vaqtida yetkazish |
| | | Xizmat faoliyatida kompyuter texnikasi, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda boshqa zarur uskunalardan samarali foydalanish |
| | | Xizmat hujjatlari va ma'lumotlari bilan ishlashda aniqlik, tizimlilik va belgilangan tartiblarga rioya etish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, O'zR transport Vazirligi, O'zR «O'zaviatsiya» Agentligi, "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari |
| | | O'rnatilgan tartibga binoan ishchi hujjatlarni yuritishni amalga oshirish va Parvozlar rahbari (katta dispetcher)ga o'z vaqtida zaruriy ma'lumotlarni taqdim etish asoslari |
| | | Mehnat muxofazasi, texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi me'yor va qoidalari; O'zR mehnat qonunchiligi asoslari |
| | | "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK parvozlar xavfsizligi, sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va Parvozlar xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy prinsiplari |
| | | O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, qonun hujjatlari talablari, O'zR transport Vazirligi, O'zR |

| | | |
|---|---|---|
| | | «O'zaviatsiya» Agentligi, "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK hujjatlarining HHXkga taalluqli qismlari |
| | **Ma'suliyat va mustaqillik:** | 1. Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-yo'riqchisi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan tartib asosida o'z lavozim majburiyatlarini kerakli darajada bajarmaganligi uchun javobgarlik |
| D2.6- HHXK xizmati faoliyatini reglamentlovchi hujjatlar asosida tashkil etish va rejalashtirishda rahbariyatga yordam berish, shuningdek auditlar va aviatsion hodisalar natijalariga ko'ra aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etish | D2.01.6 - Ichki va tashqi auditlar, aviatsion hodisalarni tekshirish natija xulosalariga ko'ra parvozlar xavfsizligi masalalarida aniqlangan nomuvofiqlilarni bartaraf etishda muvofiqlashtiruvchi tadbirlar ishlab chiqishda ishtirok etish | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Har oyda o'rnatilgan tartibda o'tkaziladigan professional texnik darslar davomida, kerak bo'lganda yakkama-yakka tartibda HHB mutaxassislari bilan parvozlar xavfsizligi masalasi to'g'risida darslar va tushintirish ishlarini olib borish. |
| | | 2. HHB AT Markazi/HHB HB larida "O'zaviatsiya" agentligi va "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUKning PXBT va SMT boshqarmasining inspektorlik tekshiruvlarida aniqlangan kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishda ishtirok etish |
| | | **Ko'nikmalar:** |
| | | Parvozlar xavfsizligi masalalari bo'yicha HHB mutaxassislariga professional texnik darslar va tushuntirish ishlarini yakka tartibda hamda guruh shaklida olib borish |
| | | HHTqda qo'llaniladigan normativ-huquqiy hujjatlarni amaliyotda qo'llash, ulardagi o'zgartirish va qo'shimchalarni o'z vaqtida inobatga olish hamda tegishli hujjatlarga tatbiq etish |
| | | Ichki va tashqi auditlar, inspeksiya va tekshiruvlarga tayyorgarlik ko'rish, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan zarur choralarni belgilash va ularni bartaraf etishda ishtirok etish |
| | | Parvozlar xavfsizligi bilan bog'liq kamchilik va nomuvofiqliklarni aniqlash, ularning sabablarini baholash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish |
| | | HHB AT Markazi va HHB HBlarida aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish, ularni bartaraf etish jarayonida mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash |
| | | **Bilimlar:** |
| | | HHTqda qo'llaniladigan me'yoriq huquqiy hujjatlari |
| | | ICAO asosiy qoidalari va qo'llanmalarining talablari |

| | | |
|---|---|---|
| | | HHTk xodimlarning ish (xizmat) vaqti, dam olish vaqti va charchoqni nazorat qilish qoidalari toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq navbatchilik smenasi ishini tashkil etishni bilish asoslari |
| | **Mas'uliyat va mustaqillik:** | 1. Havodagi harakatni boshqarish dispetcheri-yoʻriqchisi Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida koʻrsatilgan tartib asosida oʻz lavozim majburiyatlarini kerakli darajada bajarmaganligi uchun javobgarlik |
| **Texnik va/yoki texnologik talab** | | 1. Havodagi harakatni boshqarish tizimlari, avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ), trenajor tizimlari hamda oʻquv va nazorat texnologiyalarini mukammal bilish va ulardan foydalanish;<br>2. Dispetcherlar tayyorgarligini tashkil etishda trenajor mashgʻulotlari, oʻquv dasturlari va baholash tizimlarini qoʻllash;<br>3. Kompyuter texnikasi, ofis dasturlari va maxsus aviatsion dasturiy vositalar bilan ishlash . |

## V. Kasbiy standartning texnik ma’lumotlari

## V. Kasbiy standartning texnik ma’lumotlari

### 5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari: | Transport va avtomobilsozlik sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashining 2026-yil 24-fevraldagi 12-son bayoni |
| 2. | Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi: | KS-0088-son xulosa 24.02.2026 |
| 3. | Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi: | 1.0 – talqin, 18.02.2026 |
| 4. | Taxminiy qayta koʻrib chiqish sanasi: | 17.02.2031 |

### 5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas’ul tashkilot

**“Oʻzaeronavigatsiya” Markazi Davlat unitar korxonasi**

**Direktor D.I. Djumayev**

### 5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar toʻgʻrisida ma’lumot

| T/r | Ishlab chiqaruvchilar toʻgʻrisida ma’lumot | |
|---|---|---|
| | Ish joyi va lavozimi | Familiyasi, ismi, otasinin ismi |
| 1 | “Oʻzaeronavigatsiya” Markazi DUK Direktorining Havodagi harakatni tashkil qilish boʻyicha oʻrinbosari | Zaysev Andrey Ilich |
| 2 | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi boshligʻi | Kadirova Surayyo Axmadjanovna |
| 3 | Mehnat va ish haqi boʻlimi boshligʻi | Reva Inessa Vladimirovna |
| 4 | Havodagi harakatni tashkil qilish boshqarmasining Parvozlar rahbari-inspektori | Mirzaxidov Mirazim Abdumannopovich |
| 5 | Xodimlar boʻlimi yetakchi mutaxassisi | Xaydarova Madina Toxirjon qizi |
| 6 | Toshkent davlat transport universiteti “Aeronavigatsiya tizimlari” kafedrasi mudiri | Shukurova Saboxat Muratdajanovna |

TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BOʻYICHA TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

# HAVODAGI HARAKATGA XIZMAT KOʻRSATISH BOʻYICHA DISPETCHER

© MILLIY MALAKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI